

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALARI VA INFRATUZILMA HOLATI

Suyunov Dilmurod Xolmurodovich

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
iqtisod fanlari doktori professor*

Abduraimov Toxir Abdurazakovich

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
tinglovchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari, mavjud platformalar (masalan, Ziyonet, EduMarket, Bilimlar olami, UzEDU) va ularning faoliyat samaradorligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, infratuzilmaning (internet tezligi, qurilmalar bilan ta'minlanish, axborot xavfsizligi) holati statistik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqiladi. Ilmiy ishda raqamli transformatsiyaning mintaqaviy ta'lim tizimlariga ta'siri, mavjud muammolar va taklif etilayotgan yechimlar muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Raqamli ta'lim, Ziyonet, EduMarket, UzEDU, ta'lim infratuzilmasi, internet tezligi, raqamli platformalar, axborot xavfsizligi, O'zbekiston, onlayn ta'lim.*

Abstract. *This article explores the development stages of digital education in Uzbekistan, analyzing current platforms such as Ziyonet, EduMarket, Bilimlar olami, and UzEDU, and their operational efficiency. It also examines the state of infrastructure (internet speed, availability of devices, cybersecurity) based on statistical data. The study discusses the impact of digital transformation on regional education systems, existing challenges, and proposed solutions.*

Keywords: *Digital education, Ziyonet, EduMarket, UzEDU, educational infrastructure, internet speed, digital platforms, cybersecurity, Uzbekistan, online learning.*

Маълумки, Президентимизning Oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shuningdek, joriy yilning Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e'lon qilingani bejiz emas. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan. Jahon iqtisodiyotining

globallasuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo'lmaydi. Bugun kunimizda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortib borishi hamda ularni keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi zamonda har bir davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylangan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, kelgusi 3 yil mobaynida

iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o'rni axborot texnologiyalari yordamida yaratilishi aytilmoqda. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu o'ziga hos nazariya bo'lib, uning o'rganish ob'ekti, axborotlashgan jamiyatjarayonlari hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot nazariyasi o'z rivojlanishining boshlang'ich davridadir, chunki tsivilizatsiyaning raqamli axborot bosqichiga o'tishi bir necha o'n yil avvalgina boshlangan. “Raqamli iqtisodiyot” atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuel Kastels tomonidan kiritilgan. Bu borada u o'zining “Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat” nomli uch jildli monografiyasini chop etgan.

“RAQAMLI O'ZBEKISTON–2030” konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish bo'lib, u o'z ichiga barcha soha va tarmoqlarni qamrab olgani hamda eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo'yicha davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining uzviy hamkorligini ta'minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, shu orqali, mamlakatda “axborotlashgan jamiyat” muhitini yaratishga xizmat qiladi. Ayni damda jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni “yangi iqtisodiyot”ni vujudga keltirdi. Kam o'rganilgan va kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu bozor segmenti ishlab chiqaruvchilarga biznesda samarali marketing kampaniyalari uyushtirish, minimal xarajat qilib, maksimal foyda olish, tovar va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotishning optimal usullarini taqdim etadi. Iste'molchi, xaridor va mijozlarga sifatli xizmat hamda qulaylik yaratiladi. Bu vaqtingiz tig'iz paytida Internet orqali tushlikka buyurtma berish, mobil ilova orqali taksi chaqirish, uzoqdagi yaqiningizga pul jo'natishdan ko'ra kengroq imkoniyatlar bo'lib, transchegaraviy biznes hamkorlik, elektron tijoriy maydon,

masofaviy ofis kabilarni ham qamrab oladi. Raqamli texnologiyalar aholi uchun va tadbirkorlik sub'ektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ishlab chiqildi (<https://my.gov.uz>). Bugungi kunda Yagona portal orqali 176 tadan ortiq elektron davlat xizmati taqdim etilmoqda. 1 Tadbirkorlarning, shu jumladan, chet el investorlari murojaatlari bilan ishlashni tashkil etish sifati va tezkorligini oshirish, ular bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqotni ta'minlash, ularning qonuniy talablarini amaliy va samarali ro'yobga chiqarish va muammoli masalalarini hal etish maqsadida Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi "business.gov.uz" portali ishga tushirildi. O'zbekiston aholisining 60 foizi yoshlar bo'lib, ularni zamonaviy axborot texnologiyalariga keng jalb qilish, dasturiy mahsulot yaratish va autsoring xizmatlarini ko'rsatishga ko'maklashish orqali ish bilan ta'minlash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Xulosa: O'zbekistonda raqamli ta'lim sohasida sezilarli siljishlar kuzatilmoqda. Mavjud platformalar orqali minglab o'quvchilar va pedagoglar elektron resurslardan samarali foydalanishmoqda. Shunga qaramay, infratuzilmadagi tengsizlik, qurilma taqchilligi va raqamli savodxonlikning pastligi raqamli ta'limning keng joriy etilishiga to'siq bo'lmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat tomonidan kompleks yondashuv, mahalliy ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, xalqaro tajribalarni joriy etish va pedagog kadrlarni raqamli kompetensiyalar bilan boyitish zarur.

REFERENCES

1. Suyunov D. X. Corporate governance mechanism: problems and solutions. Monograph// T.: Academia. – 2007. - T. 200.
2. Suyunov, D., and Elmurod Abdusattorovich Khoshimov. "Methodological aspects of assessing the effectiveness of corporate governance in joint-stock companies. Scientific electronic journal" Economics and innovation technologies " 2 (2018).
3. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – S. 2321-6247.
4. Suyunova D.D. Corporate in joint stock companies ways to use digital technologies to improve management. European Journal of Research

Development and Sustainability (EJRDS), Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 4 No 09. September 2023 ISSN:2660-5570.

5. Suyunova D.D. Korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasiga ilmiy qarashlar. Iqtisodiy tarqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali, 2024 yil 31 iyul. <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/1472/1379>.

6. Suyunova D.D. Raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirish masalasiga ilmiy yondashuv. (Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2022 yil 23 dekabr.)

7. Suyunova D.D. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni joriy qilishning raqamli transformatsiyasini amalga oshirishga ilmiy-nazariy yondashuv. (Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2022 yil 23 dekabr.)

8. D.Kh Suyunov, T.D. Shermonovna The role and importance of digital technologies in the development of enterprises. The American Journal of Social Science and Education Innovations 4 (02), 15-19.2022.

9. D.X.Suyunov, E.A.Xoshimov Korporativ boshqaruv modellari: konseptual jihatlari, zamonaviy tendensiyalar va konvergensiya imkoniyatlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali 4, 12-17, 2017.

10. D.X. Suyunov, E.A. Xoshimov, Sh.A. Xusainov Korporativ boshqaruv: muammolar va zamonaviy yechimlar. 2018. 220 bet.

11. D.X. Suyunov, B.A. Xolbaev Loyiha boshqaruvi: uslub va standartlar. O‘quv qo‘llanma. 2018 yil. 195 bet.

12. Suyunov.D.X. Xolbaev.B.A. Методы и стандарты управления проектами. учебное. 2018 год. 210 стр.

13. D.Kh. Suyunov, A.T.Kenjabaev Scientific Approaches to The Analysis of the Experience of Foreign Countries on the Development of Entrepreneurship in The Service Field. Wire Insights: Journal of Innovation Insights 1 (5), 1-7. 2023.

14. D.X. Suyunov Theoretical principles of improving the modern corporate control system in joint stock companies International journal of economic perspectives. 16 (11), 90-97.2022.

15. D.X. Suyunov, S.E. Elmirzayev Korporativ boshqaruv. Darслик–Toshkent 2022.450 бет.
16. A.K. Olimovich, M.Butabaev, S.D. Kholmuradovich Project management in the system of strategic company management Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11 (7), 40-44. 2023.
17. D.X. Suyunov Ways of its Development in Uzbekistan, BPG Economy Genius Repository 24, 7-15.2023.
18. Д.Х. Суюнов, Э.А.Хошимов Замонавий шароитларда Ўзбекистонда корпоратив бошқарув тизими ривожланишининг асосий йўналишлари. Журнал Экономика и инновационные технологии, 2019. 197-210 бетлар.
19. Б.Ф.Ганиходжаев, Д.Х.Суюнов, Ш.Хусаинов. Пособие по корпоративному управлению. Ташкент–адабиёт учкунлари 2017.
20. D.KH. Suyunov, Kaytarov. V. (2023) Problems in the development of remote banking services in commercial banks of Uzbekistan World economics and finance bulletin 26, 39-46.
21. D. KH. Suyunov, M.I. Maxsudov Benefits of digitalization of the economy in Uzbekistan Экономика и социум, 748-751.2023.